


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**PRESIDENTIAL UNITS IN “BOBURNOMA”****Zulaykho M. Shaymanova**

Master's student

International Islamic Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** Precedent, “Boburnoma”, place names, personal names.**Received:** 12.05.23**Accepted:** 14.05.23**Published:** 16.05.23

Abstract: This article provides information on what precedent units are. At the same time, Zahiriddin Muhammad Babur's work “Baburnoma” shows the importance of precedent units in enhancing the artistry of the work. Examples of precedent units related to place names and people names are given from the text of the work. This helps to fully reveal the textual characteristics of the source in the study of the work.

“BOBURNOMA” ASARIDA PRETSIDENT BIRLIKLAR**Zulayxo M. Shaymanova**

Magistratura talabasi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit soʻzlar:** Pretsedent, “Boburnoma”, joy nomlari, shaxs nomlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada pretsedent birliklar nima ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida pretsedent birliklarning asar badiyatini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Joy nomlari va insonlar nomi bilan bog'liq pretsedent birliklarga asar matnidani misollar keltirilgan. Bu esa asar tadqiqida manbaning matniy xususiyatlarini to'laqonli ochilishida yordam beradi.

ПРЕЗИДЕНТСКИЕ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ В “БОБУРНОМА”**Зулайхо М. Шайманова**

студент магистратуры

Международная исламская академия Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: прецедент, “Бобурнома”, топонимия, личные имена.

Аннотация: В этой статье представлена информация о том, что такое прецедентные единицы. В то же время произведение Захириддина Мухаммада Бабура “Бобурнома” показывает важность прецедентных единиц в повышении художественности произведения. Примеры прецедентных единиц, связанных с географическими названиями и именами людей, приведены из текста работы. Это помогает наиболее полно раскрыть текстовые характеристики источника при изучении произведения.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar va katta axborot oqimi ichida yashayotgan bugungi kun kitobxonlari, o'rganuvchilariga ma'lumotni qiziqarli qilib yetqazish, ilm va ijod ahlining, qolaversa, ommaviy axborot vositalari xodimlari oldida turgan ulkan masalalardan biridir. Matn bilan ishlayotgan har bir odam muallifning unga berayotgan yangilikni qabul qilib olishi, o'zlashtirishida samarali bo'lishi uchun pretsedent birliklarning ahamiyati katta. Shu o'rinda muhtaram yurtboshimizning “Biz buyuk tarix, buyuk davlat va buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz”, degan qisqagina fikrlarini nazarda tutgan holda fikr va mulohazalarimizni bayon qilamiz. Aynan madaniyatimiz, tariximizgagina xos bo'lgan adabiy manbalarni tadqiq qilish, ularning badiiyligini ta'minlovchi vositalarni aniqlash orqali asarlar haqida katta ma'lumotlar bazasini yaratish bugungi kun manbashunos va matnshunoslarining oldilaridagi eng ulkan vazifalardan biridir. Ushbu vazifalarni oz bo'lsa-da, ado qilish uchun badiiy asar, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”siga murojaat qildik va ushbu qimmatli manbadagi pretsedent birliklarni tahlil qilib o'rganishni joiz topdik. Zero, ushbu tahlil orqali adabiy manbalarimizdagi badiiy topilmalar keng kitobxonlar qatlami uchun yuksak ma'naviy xazina bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Mustaqillikdan keyin, ayniqsa, bugungi kunda ma'naviy merosimizni o'rganishga e'tibor kuchaygan bir paytda badiiy asarlarni chuqurroq o'rganish, ularni sinchiklab tahlil qilish, asarning badiiyatini ta'minlab beruvchi vositalar, xususan, pretsedent nomlarni aniqlab ularni keyingi avlodga tasnifini keltirib berish orqali ilm oluvchilarga oz bo'lsa-da, manfaat keltirish maqsad qilib olindi. “Boburnoma” misolida pretsedent nomlarni tasniflab chiqish orqali ushbu badiiy vositaning mohiyatini yanada ochib berish ko'zda tutildi.

“Ma'lumki, bizning milliy davlatchiligimiz necha ming yillik qadimiy tarix va boy madaniyatga ega”, - degan edi muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. Boy madaniyatimizni

yanada boyitish, rivojlantirish uchun ilm-fanga chuqur e'tibor berilmoqda. Ilmiy maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar bajarilishi belgilandi:

badiiy adabiyotda pretsedent birliklarning qo'llanish masalasini ko'rib chiqish;

- adabiyotda pretsedent birliklarning o'rganilishini yoritish;

- pretsedent birliklarning uslubiy jihatlarini tahlil qilish;

- badiiy matnda pretsedent birliklar stilistikasini ("Boburnoma" misolida) yoritish;

- "Boburnoma"da joy nomlari, maqollar, hikmatli so'zlar bilan bog'liq pretsedent birliklar uslubiyatini o'rganish;

- "Boburnoma"da shaxs nomi bilan bog'liq peretsedent birliklar uslubiyatini o'rganish.

Pretsedent birliklar tushunchasi o'tgan asrning ikkinchi yarmida rus tilshunosi Yu.N.Karaulov tomonidan tilshunoslikka kiritilgan. Y.A.Naximova pretsedent fenomenlarni xalqning milliy ongida saqlanuvchi tizim sifatida baholaydi. M. Saydaliyeva ham ushbu mavzuga qo'l urgan. Shuningdek, pretsedent birliklar yuzasidan N. Teshaboyeva, D. Bultakova, Z. Xolmonova, M. Ismatova va boshqalar ham turli xil ilmiy izlanishlar olib borganlar, maqolalar yaratganlar. N. Pyego-Gro o'zining intertekstuallikka bag'ishlangan tadqiqotida pretsedent birliklarni to'rtga bo'ladi: 1. Sitata. 2. Referensiya. 3. Qo'shtirnoqsiz ko'chirma. 4. Allyuziya. Demak, pretsedent birliklarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan ancha keng doirada o'rganilgan, ammo matn jihatdan, adabiyotda badiiy vosita sifatida o'rganish ham muhim hisoblanadi.

"Pretsedent" atamasi dastlab o'tgan asrning ikkinchi yarmida rus tilshunosi Yu. N. Karaulov tomonidan tilshunoslikka kiritilgan. Ilk marta 1986-yili rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining VI Xalqaro kongressida qilgan ma'ruzasida tilshunoslik nuqtayi nazaridan qo'llangan. Keyinchalik, Karaulov o'zining "Русский язык и языковая личность" asarida ushbu terminning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilib bergan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridagi tadqiqotlar ichida pretsedent birliklar, pretsedent matnlar, pretsedent nomlar tushunchalari ham o'rganila boshlandi.

"Pretsedent matnlar ma'lum bir shaxs uchun kognitiv yoki hissiy munosabatlarda ahamiyatli, g'ayritabiiy xarakterga ega, ya'ni ushbu shaxs mansub doiradagilarga, jumladan, uning o'tmishdoshlari va zamondoshlariga yaxshi ma'lum va nihoyat, ushbu lisoniy shaxs nutqida qayta-qayta takrorlanadigan til birliklaridir."

Pretsedent so'zining lug'aviy ma'nosi "namuna sifatida xizmat qiladigan ish, kelajakda shunga o'xshash ishlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun asos" ma'nosini anglatib, tilshunoslikda "muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumladan hamda matnlar pretsedent matnlar sifatida qayd etiladi."³

³ Худойбергана Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013. –Б. 87

M.Artikovaning “Pretsedent fenomenining lingvomadaniy tabiati” maqolasida pretsedent turlaridan hisoblangan pretsedent nomlar - o‘tmishda yoki hozirda qandaydir yuksak e’tirofga sazovor ishlarni amalga oshirgan mashhur kishilar bilan birga muayyan jamiyat a’zolarining barchasiga tanish bo‘lgan joylarni ham nazarda tutadi.⁴

Y. A. Naximova “Прецедентные имена в массовой коммуникации” (“Ommaviy muloqotda pretsedent nomlar”) monografiyasida milliy-madaniy mansubligi, onimlar tabiatiga ko‘ra antroponim, toponim, astronom va boshqalarni kiritish mumkinligini ta’kidlaydi.⁵ Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda pretsedent nomlarga shaxs nomlari, joy nomlari, qanaqadir jismlar nomlari kiradi deb aytish mumkin. D. Xudoyberganova o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib pretsedent birliklarni lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti sifatida tadqiq qiladi va pretsedent nomlarni alohida guruhlaydi: “Pretsedent birliklar ichida pretsedent nomlar alohida o‘rin tutadi. Aytish joizki, bu hodisa mumtoz adabiyotimizdagi talmeh san’ati – mashhur shaxslar nomini keltirish orqali biror voqeaga ishora qilish hodisasiga juda o‘xshaydi. Shuni aytish joizki, pretsedent nomlar yuzaga kelish motiviga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ular badiiy matnlar, diniy matnlar, mashhur va qiziq voqealar, afsona, rivoyat, ertak, latifa, kinofilmlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, Layli, Majnun, Xizr, Nasriddin afandi, Shum bola, Qora botir, Tohir-Zuhra, Sotti kabi.”⁶ Bundan kelib chiqadiki, biron bir diniy matn, joy nomlari, shaxs nomlari yoki qandaydir kinofilmlardagi mashhur nomlar, jummlar, fikrlar pretsedent birlik bo‘la oladi. Pretsedent birliklarni asosiy jihati, ularni eslashimiz orqali qandaydir bir mashhur voqea yodimizga tushadi. Bu esa adabiyotda badiiy asarning ta’sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi, kishi ongida yorqin tasavvur qoldiradi.

Talmeh (arabcha- chaqmoq chaqishi, ko‘z qirini tashlash, nazar solmoq)-mumtoz adabiyotdagi she’riy san’at, she’rda mashhur tarixiy voqea, shaxslar, badiiy asarlarga ishora qilish. Talmeh shoirni ko‘zda tutilgan fikrni batafsil aytish, holatni batafsil tasvirlash zaruratidan xalos etib, ko‘zlangan samaraga o‘sha fikr yoki holatga mos keladigan boshqa biror hayotiy yoki badiiy faktga ishora qilish bilan erishish imkonini beradi. Demak, talmeh orqali poetik vazifa bajargan joy nomlari va shaxs nomlarini ham pretsedent birlik deb bimalol aytishimiz mumkin va bu badiiy adabiyotda ta’sirchanlikni oshiruvchi vosita sifatida qoraladi.

⁴ Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати// Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, № 3 (38), 78-92

⁵ Нахимова Е.А. Претцедентные имена в массовой коммуникации: монография. ГОУ ВПО <Урал.гос.пед.ун-т>; Инс-т социального образования. Екатеринбург: 2007

⁶ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013.–Б. 90-91

M. Saidova, U. Qo'ziyevlar pretsedent birliklar deganda, faqat antroponimlarni nazarda tutadilar: "Juda mashhur matnlar bilan bog'liq (*Qori Ishkamba, Maysara, O'tkuriy* kabi), vaziyatlar bilan bog'liq (*Jaloliddin, Mahmud Tarobiy, Shiroq* kabi) atoqli otlarni tushunamiz."

M. Saydaliyeva "O'zbek pretsedent nomlarining ayrim qo'llanishidagi ayrim jihatlar" maqolasida antroponimlar bilan bir qatorda o'zbek pretsedent toponimlari qo'llanilishini publitsistik matn doirasida tadqiq qiladi.

N.E.Pardayevning "Zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasida pretsedent birliklar tadqiqi" maqolasida pretsedent nomlar onimlar tabiatiga ko'ra farqlab ajratilmagan bo'lsa-da, keltirilgan misollarning har xil onim turlariga mansubligi ko'zga tashlanadi. "*Hozirgi vaqtda Ayyub, Afrosiyob, Alpomish, Bog'i Eram, Boychibor, jomi Jam, Iskandar, Ka'ba Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Odam Ato, Momo Havo, Masih, To'maris, Shiroq, Amir Temur, Hotam, Humo, Usmon, Cho'lpon kabi o'zbek va Sharq lingvomadaniyatiga; Gamlet, Gerakl, Ikar, Kolumb, Otelello, Yago, Buratino* kabi G'arb lingvomadaniyatiga oid nomlar faol qo'llanmoqda." yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, pretsedent birliklar mualliflar tomonidan topilgan topilma sifatida adabiyotda keng qo'llaniladi.

"Amerika- sehrli diyor.

Uxlar edi Kolumb ham hali.

Dengiz ortin yoritdi ilk bor,

Beruniyning aql mash'ali.

Kolumbda bor alamim manim,

O'zbekiston- Vatanim manim!"

(A.Oripov)

A.Oripovning individul sifatlashi – "sehrli diyor" birikmasi xalq orasida ommalashib, pretsedent birlikka aylandi, natijada turli soha vakillari, jumladan jurnalistlar tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari davlatiga nisbatan perefrasa sifatida to'g'ridan-to'g'ri qo'llana boshladi. Ommaviy axborot vositalari va internet nashrlaridagi materillarning "*Sehrli diyor sarhadlarida*", "*Sehrli diyor*"ga to'liq grant yutish uchun nima qilish kerak?" kabi sarlavhalar bilan berilayotgani hammaga ravshan.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, barcha pretsedent birliklar dastlab tilshunoslikda o'rganilgan va keyinchalik badiiy adabiyotda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida, ifodaning o'quvchiga tushunarli va aniq yetkazib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida til bilan adabiyotni bir - biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday adabiyot til orqali namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan pretsedent birliklarni badiiy vosita deb bimalol ayta olamiz. Mumtoz adabiyotimizdagi talmeh san'ati haqidagi fikrlar ham buni tasdiqlaydi.

Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning ilg'or yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda xalqning milliyligini, turmush-tarzini aks ettirib beradigan bir tizim sanaladi. Ko'pincha insonlar muloqot jarayonida fikrni ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish yoki tinglovchining diqqatini ayni bir hodisa, jarayonga jalb qilish maqsadida barchaga ma'lum bo'lgan jumla, vaziyat yoki shaxslarga turli ishoralar bilan murojaat qiladilar. Tillardagi bu jarayonlar millatning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Pretsedent birliklar til egalarining xotirasida mavjudlik, mashhurlik, biron bir mashhur matn yoki vaziyat bilan bog'liqlik, ramziy ma'noga egalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Rus tilshunosligida pretsedent birliklar tadqiq etilgan ishlarda Injil materiallari, miflar, xalq qo'shiqlari, ertaklar, latifalar, maqol, iboralar hamda mashhur shaxslarning nomlari pretsedent birlik sifatida qabul qilingan. Shunga ko'ra, ular quyidagicha guruhlanadi:

1. Pretsedent nomlar – keng jamoatchilik uchun yaxshi tanish atoqli otlar bo'lib, ular matnda aniq bir shaxsni ifodalash uchun emas, balki o'ziga xos bir madaniy belgi, timsol, ma'lum bir sifat, voqealar, taqdirlar ko'rinishida qo'llanadi.

2. Pretsedent jumlar – turli xarakterdagi matnlar ichidagi sitata (iqtibos)lar, aforizmlar, maqollar va matallar kiradi.

3. Pretsedent matnlar – diskursda til shaxsiyatlariga bir necha marta takrorlanadigan murojaat.

4. Pretsedent vaziyat – muayyan tagma'nolarga ega bo'lgan mukammal bir vaziyat.

N.Pyego-Gro intertekstuallikka bag'ishlangan tadqiqotida pretsedent birliklarni to'rtga ajratadi. 1.Sitata; 2.Referensiya; 3.Qo'shtirnoqsiz ko'chirma; 4.Allyuziya.

Pretsedent nomlar mumtoz adabiyotimizdagi talmeh san'ati- mashhur shaxslar nomini keltirish orqali biror voqeaga ishora qilish hodisasiga juda o'xshaydi. Masalan, *Lutfiyning Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma* baytida Islom dini tarixidan ma'lum bo'lgan Ya'qub payg'ambarning o'z o'g'li Yusufdan ayrilgach, yig'layverib ko'zlari ko'r bo'lib qolishiga ishora bor.

Pretsedent nomlar ma'lum bir millat vakillarining milliy mentaliteti bilan bog'liq bo'lishi barobarida global xarakterga ham ega sanaladi. Masalan, o'zbek o'qirmani *Napoleon, Xristofor Kolumb, Buratino, Charli Chaplin, Otello, Don Juan, Robinzon Kruzo, Jeki Chan, Mister Bin* kabi nomlar ishtirok etgan matnlar mazmunini hech bir qiyinchiliksiz tushunishi mumkin. Pretsedent nomlarning badiiy matndagi muhim stilistik xususiyati shuki, ular o'quvchi ongida matnga doir, lekin uning tuzilishiga kirmagan qo'shimcha ma'lumotlar bilan ham ishlaydi. Pretsedent nomlarni milliy hamda universal nomlarga bo'lib o'rganish mumkin. Masalan, milliy nomlarga *Ayyub, Afrosiyob, Alpomish, Bog'i Eram, Boychibor, Jomi Jam, Iskandar, Ka'ba, Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Odam Ato, Momo Havo, Masih, To'maris, Shiroq, Amir*

Temur, Hotamtoy, Humo, Usmon, Cho'lon va h.k.lar kirsalar, universal nomlarga *Gamlet, Gerakl, Ikar, Kolumb, Otello, Yago, Buratino, Pushkin, Tolstoy, Artur, Victoria, Sheksper, Vashington, Steve Jobs, London, Manchester, Liverpool, New York, Chikago NATO* lar kiradi. Presedent birliklar so'zlashuv uslubida ham nihoyatda keng qo'llanadi. Shu bilan birgalikda badiiy uslubda nihoyatda keng qamrovli hisoblanadi. Publitsistik, ilmiy uslublarda ham ularni uchratishimiz mumkin. Ular frazeologizm, ya'ni iboralar, turg'un o'xshatish, mataforalar, nutqiy etiketlar, maqol va hadislar ko'rinishida badiiy matnlar tarkibida badiiy uslubda namayon bo'ladi.

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,

Muttahamlar dunyosida, shoh Bobur.

Andijon-u Hind-u – yetti iqlimda

Topilmadi sizga bir dodxoh, Bobur.

(S.Sayyid. "Shoh Bobur")

Matndagi Bobur nomi Sirojiddin Sayyid qalamiga mansub matnni besh asr avval yaratilgan matn bilan – Boburning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" deb boshlanuvchi ruboiysi bilan bog'lashga xizmat qilyapti.

Nizomiy bolidan halvo pishurmish,

Navoiy zabt etib turkiy jahonni.

A. Oripov. "Ozarbayjon")

Ushbu she'riy matnda esa Nizomiy, Navoiy nomlari vositasida Navoiyning turkiy tilda "Xamsa" yaratish tarixiy faktga ishora qilingan.

O'tgan kuning- o'tgan kundir,

O'z boshingga yetgan kun.

Qodiriyning bergan zamin,

Qodiriyning sotgan kun.

(M.Yusuf. "Vatanim")

Bu matnda "O'tgan kuning" birikmasi orqali ham qatag'on davriga, ham "O'tkan kunlar" romaniga, Qodiriy pretsedent nomi orqali esa uning fojeali o'limi haqidagi faktga ishora qilingan. Qodiriy va uning romani haqidagi ma'lumotlarning mashhurligi she'riy matn mazmunini tushunilishida katta rol o'ynaydi.

Pretsedent nomlar ma'lum sifatlarining namunaviy yig'indisiga ishora qilish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun muayyan lingvomadaniyatda biror tushunchaning ramzi sifatida qo'llanadi. Ko'plab matnlarda *Hotam, Luqmoni Hakim, Rustam, Majnun, Layli, Ka'ba, Bog'i Eram, Lomi Jam* kabi an'anaviy ramziy nomlarni qo'llash bilan birga *Kumush, Jaloliddin, Kolumb, Otello, To'maris, Shiroq, Barchin* kabi nomlarni ham muayyan tushunchaning ramzi sifatida qabul qilish o'zbek lingvomadaniyatiga xos xususiyatlardan biriga aylandi. Masalan, bugungi kunda, *Kumush-*

iboli, andishali o'zbek ayoli, Jaloliddin-jasur, vatanparvar, Kolumb- kashfiyotchi, Otello- o'ta rashkchi, To'maris va Barchin nomlari esa mard, oriyati baland ayol ramzi sifatida qo'llanmoqda.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodini kuzatadigan bo'lsak, uning asarlarida qo'llangan pretsedent birliklar shoir ijodiga o'zgacha joziba, falsafiy mazmun baxsh etishi bilan birga o'zbek millatining ma'naviy-madaniy jihatdan boyligi, ulug'vorligi, dunyo tamaddunidagi beqiyos o'rni va qarashlarini, mentalitetini ham aks ettiradi. Ijodkor har bir birlikni ma'lum bir maqsad asosida, vaziyatga mos holda voqea-hodisalar badiiyligini oshirish, sujetni boyitish vositasi sifatida qo'llaydi. Masalan, shoir Vatanga ta'rif berish chog'ida "Ostankino minorasi"ga ulug'vorlik baxsh etish omili sifatida murojaat qiladi:

Sen meni yo'llading, Kelib men nogoh

Ko'hna Sirdaryoning kanorasidan

Bu kun Moskvaga tashladim nigoh

Yuksak Ostankino minorasidan.

Muallif mashhur asar qahramonlari va badiiy matnlar, asar nomlariga murojaat qiladi, ular bilan bog'liq pretsedent ifoda birliklarini qo'llash orqali milliy-madaniy o'zlik ruhini, madaniy qadriyatlarni qo'zg'atishga diqqat qaratadi.

Fikrat: Bobom o'lgan emas. Mana uning yuragi, tafakkuri, hikmati, orzu va rejalari. Bular men uchun dastur, Qobusnoma. ("Taxt va baxt" dostonidan)

Muallif betakror tabiati, muhim voqealari bilan ko'pchilik e'tiborini jalb etadigan, dunyoning mashhur joylari, diyorimizning so'lim maskanlari, betakror shaharlar, taniqli shaxslar nomlariga ham murojaat etgan holda o'quvchining ko'z o'ngida boshqacha g'urur-iftixor tuyg'ularini jonlantiradi:

Diyorim timsoli kekxa Tiyonshon,

Cho'zib ikki daryo, ikki qo'lini,

Uzatib turibdi Sharq-u G'arb tomon

Do'stlik kosasini- Orol ko'lini.

Yuqorida qayd etilganidek, pretsedent nomlar ma'lum bir millatning mentaliteti bilan bog'liq milliy-madaniy jihatlarni aks ettirishi bilan birgalikda universal ahamiyatga ham egadir.

Pretsedent jumlar asosan so'zlashuv uslubida keng qo'llanadi. Jumladan, kinolarda qahramonlar tomonidan aytilgan ayrim fikrlar, she'rlar, qo'shiqlar judayam tezda mashhur bo'lib ketyapti. Bundan tashqari pretsedent jumalarga maqollar (Sinalmagan otning sirtidan o'tma), shiorlar (O'zbekiston kelajagi buyuk davlat), oddiy so'zlashuv tilidagi fikrlar (Shunday yashamoq kerakki, toki hayotda cheksiz talablar qo'yish mumkin bo'lsin) kiradi. Ushbu jumalarni so'zlayotgan insonlar o'zlarini vaziyatlariga moslagan holda ishlataveradi. Misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Onamdan qolgan toshoyna qani? ("Uchrashuv" filmidan);

O'nta qo'y nima bo'ladi? ("Mahallada duv-duv gap" filmidan);

Otamni uylantiraman deyapti. ("Chinor ostidagi duel" filmidan);

Siz o'shami? ("O'tkan kunlar" filmidan);

Nima haqida gaplashyapsizlar? - Shpionlar haqida ("Kelinlar qo'zg'aloni" filmidan).

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, pretsedent birliklar ma'lum uslubiy vazifalarni bajaradi. Aynan keltirilgan misollardan anglashiladiki, ular so'zlashuv nutqining yanada qiziqarli, ishonarli, tasviriy vositalarga boy bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari pretsedent matnlar ham muhim uslubiy vazifalarni bajaradi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, pretsedent matnlar ko'p, ular tarkibiga she'r, she'riy sitatalar, badiiy va musiqaviy asarlar nomlari, kinofilm va ashulalardagi iboralar, reklamalar, latifalar, Qur'on oyatlari va boshqalar kiradi. *"Kelinning onasiga – konfet fabrikasi, tog'asiga – araq zavodi, o'lgan buvisiga yangi kafan"* ko'chirmasi o'zbek tilida so'zlashuvchilarga "Uchrashuv" telefilmni yaxshi eslatadi. Shuning uchun ushbu matnning mazmunini tushunish uchun ma'lum bir bilim kerak emas. Bu matn ko'pchilikka tanish ekanligidan pretsedent matnga misol bo'ladi.

Y.N.Karaulov esa pretsedent matnlarga shunday ta'rif beradi: "Birdan ortiq shaxsga tegishli bo'lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan, ya'ni mazkur shaxs bilan aloqador odamlarga juda yaxshi tanish bo'lgan hamda til egalari diskursida qayta-qayta murojaat qilinadigan matnlar" pretsedent matnlardir.

Pretsedent matnlar ikki xil- aynan yoki o'zgartirilgan holatda qo'llanishi mumkin. Masalan, *Peshonamda nima bo'lsa, shuni ko'raman. Taqdirdan qochib, qayerga ham borardim?! Bendasining emas, Xudoning aytgani bo'ladi.* (S.Nazarova. "Qorlar eriganda" hikoyasi)

So'zlashuv uslubiga xos bo'lgan ushbu matn hadisi sharifda quyidagi ko'rinishga ega: "Abdulloh (ibn Mas'ud) rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday dedilar: "Har qaysingizning vujudingiz onangiz qornida qirq kunda tarkib topgay, so'ng yana shuncha kunda laxta qonga va yana shuncha kunda bir parcha etga aylangay. Keyin Alloh taolo (onangiz qorniga) bir farishtani yuborib, unga to'rt so'zni, ya'ni qanday ishlar qilmog'ingizni, rizqingizni, umringizni va baxtsiz yoki baxtli ekanligingizni yozib qo'ymoqni amr qilg'ay. So'ng jisimingizga ruh pudalagay". (Hadisdan)

Pretsedent matnlarga segmentli matnlar, o'xshatish, maqol, metafora asosidagi matnlarni, shuningdek, ilmiy uslubga xos ayrim matn turlarini, rasmiy uslubdagi hujjatlar matnlarini ham kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak pretsedent birliklar badiiy matnlarda turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ilmiy, rasmiy, badiiy, so'zlashuv uslublaridagi matnlar pretsedent birliklar bo'la oladi.

Nomlar, matnlar, maqollar, hikmatli soʻzlar, iboralar, reklamali shiorlar pretsedent birliklar hisoblanadi. Bu birliklar matnga taʼsirchanlik beradi, hissiy boʻyoqdorlik beradi, fikrning inson tafakkurida aniq, ravshan namoyon boʻlishiga yordam beradi. Shuningdek, badiiy matnlarda pretsedent birliklarning qoʻllanishi orqali maʼlum bir millatning mentaliteti, milliyligi, turmush-tarzi haqida ham maʼlumotga ega boʻlish mumkin. Bunda esa yuqorida taʼkidlanganidek, pretsedent birliklarning uslubiy jihatlari katta ahamiyatga ega.

Oldingi bobda pretsedent birliklarning turlarini, ularning bajarayotgan uslubiy vazifalarini koʻrib chiqildi. “Boburnoma” misolida pretsedent nomlar uslubiyatiga toʻxtalamiz. Asar yuzasidan tadqiqot olib borgan M.Abdullayevaning maʼlumotiga koʻra, “Boburnoma”da hammasi boʻlib 1540 nafar shaxs nomlari qayd etilgan, shulardan 357 nafari movarounnahrlik tarixiy shaxslarning nomlari sanaladi. Qolgan qismi esa turli davrda, turli mamlakatlarda yashagan tarixiy shaxslarning nomlaridir. Ular orasida juda koʻp tarixiy shaxslar, temuriy hukmdorlar, harbiy amaldorlar, ilm-fan va sanʼat namoyandalarining, shoir va ijodkorlarning portretlari, ruhiyatlari mohirona chizilgan, ularning xatti-harakatlari, shaxsiy xususiyatlari- xarakterlari, faoliyatlari bayoni pretsedent nomlar asosida ochib berilgan. Ushbu pretsedent nomlar voqealar rivojida muhim oʻrin tutgan. Jumladan, Umarshayx Mirzo, Husayn Bayqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshoh kabi tarixiy shaxslarning faoliyati va sarguzashtlarini bayon etish bilan birga, ularning shakl-shamoyili, nasl-nasabi, madaniy saviyasi va boshqa jihatlarni ham tasvirlaydi. Asarda ishtirok etgan pretsedent nomlarni 3 guruhga ajratib tahlil qildik.

1. Tarixiy shaxslar nomi.
2. Ijodkor shaxslar nomi.
3. Ayollar nomi.

Asarda Bobur har bir shaxsga xolis munosabat bildiribgina qolmay, shu pretsedent nomlar haqida oʻquvchilar ongida keng tasavvurlar hosil qila oladi. “...Xisravshoh badbaxt kofiri neʼmat saltanat dagʻdagʻasi bilakim, saltanat andogʻ nokas, behunarlargaga ne nav yetgay! Ne asl, ne nasab, ne hunar: ne hasab, ne tadbir, ne shujoat, ne insof, ne adolat! Boysunqur mirzoni beklari bila tutub, Boysunqur mirzogʻa kerish solib, muharram oyining oʻni erdikim, mundoq xushtaʼb va purfazilat va hasab va nasab bila orasta podshohzodani shahid qildi. Beklari va ichkarilaridin ham bir nechani oʻlturdi”. Shuningdek, asarda narsa nomlari ham shaxs nomi orqali pretsedentlik hosil qilgan. “...Qovuni yaxshi boʻlur. Bir nav qovundurkim, “Mir Temuriy”derlar, andoq qovun maʼlum emaskim olamda boʻlgʻay”. Mir Temuriy deyilganda temuriy shohlar nazarda tutilyapti.

Podshoh Sulton Husayn Mirzo nomi ham birgina asarning oʻzida 108 marta tilga olingan. Shu bilan birgalikda sultonning barcha sifatleri birgina soʻzda namoyon boʻlgan. Ushbu pretsedent birlik orqali oʻquvchi koʻz oʻngida Husayn Boyqaroning taʼbi nozikligi va kamchiliklari ham bor boʻyi bilan namoyon boʻladi. “Tabʼi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi.

Taxallusi “Husayniy” edi. Ba’zi baytlari yomon emastur, vale mirzoning devoni tamom bir vazndadur”

“Boburnoma” dagi deyarli barcha nomlar pretsedent birliklar hisoblanadi. Bu nomlar asosan, asarda qahramonlar tavsifida ko‘p uchraydi. Bobur otasi Umarshayx Mirzo haqida bayon berarkan. Uning avlodlari to‘g‘risida quyidagilarni keltiradi. *“Avlodi: uch o‘g‘ul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o‘g‘lonlaridin uluq men- Zahiriddin Muhammad Bobur edim; mening onam Qutluq Nigorxonim edi. Yana bir o‘g‘ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mo‘g‘ulning tuman beklaridin edi, Fotima Sulton otliq. Yana bir o‘g‘ul Nosir mirzo edi, onasi andijonlik edi, g‘unchachi edi, Umid otliq. Mendin to‘rt yosh kichik edi.*

Bori qizlaridin ulug‘ Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug‘ erdi. Men Samarqandni ikkinchi navbat olg‘onda,.... Ul fatarotta Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxonga tushub edi, bir o‘g‘ul bo‘lub erdi. Xurramshoh otliq, maqbul o‘g‘lon edi... Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi. Nosir Mirzo bila bir tuqg‘on erdi, mendin ikki yosh ulug‘ erdi. Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi, bu dag‘i Nosir mirzo bila bir tuqg‘on erdi, mendin sakkiz yosh kichik erdi. Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og‘a sulton otliq g‘unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, Maxdum Sultonbegim edi. Qorako‘zbegim derlar edi”.

Ushbu matnda keltirilgan nomlar pretsedent nomlar bo‘la oladi. Aynan “Boburnoma”da pretsedentlik hosil qilmagan bo‘lsa-da, lekin tarixiy nom bo‘lganligi va tarixda mashhur bo‘lganligi uchun ular boshqa asarlar tarkibida pretsedent nom bo‘la oladi. Shuning uchun Zahiriddin Muhammad Bobur, Qutluq Nigorxonim, Jahongir mirzo, Fotima Sulton, Nosir mirzo, Xonzodabegim, Shayboniyxon, Xurramshoh, Mehrbonubegim, Shahrbonubegim, Yodgor Sultonbegim, Og‘a sulton, Ruqiya Sultonbegim, Qorako‘zbegim kabi nomlarni pretsedent birlik sifatida ololamiz.

Shuningdek, “Boburnoma” da ijod ahllari haqida juda ko‘p misollar, dalillar keltirilgan. Xususan, Mir Alisher Navoiy tasviriga batafsil to‘xtalgan. Kamoliddin Behzod, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Solih, qulmuhammad Udiy va boshqa pretsedent nomlar ham tilga olingan. Asarda Alisher Navoiy Alisherbek nomi bilan 36 marta, Mir Alisher Navoiy nomi bilan 7 marta tilga olinadi. “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she‘r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”.

Asarda pretsedent birlik sifatida kelgan Iskandar nomi ham mashhur. Bobur bobosi Yunusxonning xotinlari haqida aytganda, Shohbegim haqida to‘xtaladi. *“Shohbegim Badaxshon shohi Shoh Sulton Muhammadning qizi edi. Bu Badaxshon shohlari nasablarini Iskandari Faylaqusqa yetar derlar”.*

Bobur Andijon shahri haqida ma'lumot berar ekan, shunday yozgan: "Eli turkdur, shahar va bozorasida turkiy bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur".

Bobur Navoiy asarlari tiliga Andijon shevasi asos bo'lgan degan fikrni aytmoqda. Aynan shu fikrlar pretsedent birlik bo'la olgan. Nega deganda, Boburning bu fikri ko'pchilikning olimlar diqqatini tortgan. V.V.Bartold bu fikrni o'sha davrdagi madaniy shahar bo'lgan Andijonda to'g'ri til, ya'ni adabiy tilga yaqin til bilan gapirishgan deb tushunmoq kerak, deydi. U Andijonda bo'lgan emas deb ko'rsatadi. P.T. Melporanskiy singari tilshunoslar Navoiy tiliga qaysi sheva asos bo'lganini aniqlash masalasiga ishonchsizlik bilan qaraydilar.

Bizningcha, Navoiy asarlari tiliga aynan bir shevagina asos bo'lgan deyish to'g'ri emas. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Navoiy turkiy til shevalarini puxta bilgan, turkiy til boyligini ko'rsatishda ulardan keng foydalangan. Ammo gap Boburning Navoiy haqidagi o'sha fikrlari juda mashhur ibora (pretsedent birlik)ga aylangan.

Bundan tashqari asarda Bobur Binoiy (bastakor), Pahlavon Muhammad (bastakor), Kamoliddin Behzod (rassom) kabi mashhur insonlar nomini ham keltirgan va ularning yuksak iqtidori borligini mohirona tasvirlagan.

"Boburnoma"dek ulkan tarixiy asarda ayollar obrazlariga ta'rif bermaslik, ularning ishtirokisiz asar yozishning iloji yo'q edi. Shu sababli Bobur temuriy malikalar, ularning kanizaklari, qizlari to'g'risida juda ko'p to'xtalgan. Ulag alohida ta'rif bergan. Ular asosan, ma'lumot berilayotgan shaxsning "Xavotun va sarori" degan bandi tarkibida keltiriladi. Asarda jami 72 ta ayol obrazini uchratamiz, ammo ularning hammasi ham pretsedent birlik sifatida keltirilmagan. Shunchaki ular asar mazmuni to'dirganligi uchun Bobur ularni tasvirlagan.

Xulosa shuki, asarda mingdan ortiq shaxslar tilga olinadi. Ularning ko'pchiligi pretsedent birlik sifatida qo'llangan bo'lsa, boshqalari haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Ushbu nomlar asar kompozitsiyasida, syujetida, mazmunida katta ahamiyatga ega. Negaki, ushbu nomlar asar voqealarining harakatlantiruvchisi hisoblanadi. Bobur asardagi biror nomga murojaat qilar ekan, xolislik bilan munosabatda bo'ladi, bu esa asar badiiyatini yanada oshirgan. Ish davomida pretsedent nomlarni aniqlashda hukmdorlar, amirlar, vazirlar, din peshvolari, ijod ahlari: shoirlar, rassomlar, sozandalar; ayollar obrazlariga murojaat qildik. Bundan tashqari Bobur biror bir nom haqida fikr yuritganda u shaxs haqida maksimal darajada aniqlik bilan fikr yuritgan. Masalan, ularni tashqi ko'rinishidan tortib, qilgan ishlari, fe'l-atvori, egallagan mavqeyi va boshqalar haqida fikr yuritgan.

"Boburnoma" asari ma'naviy qadriyatlarimizning bir bo'lagi bo'lmish toponimlar va ularning tarixini o'rganishda muhim manba sanaladi. Unda mingdan ortiq geografik nom,

mamlakat, shahar, qishloq, qal'a, dasht, tog', dovon, dara, daryo, ko'prik, kechuv, ko'l, chashma, bog', yaylov, o'tloq va boshqa joylarning nomi tilga olingan.

Pretsedent birlik sifatida keltirilgan joy nomlarini tahlil qilishda ularni mamlakatlar nomi (Afg'oniston, Hindiston, Arabiston, Mo'g'uliston, Iroq, Ozarbayjon, Misr, Xitoy, Xuroson); shaharlar nomlari (Dehli, G'azna, Qobul, Mashhad, Banoras, Urganch, Toshkand, Andijon, Kesh, Sayram, Xo'jand, Qarshi, Buxoro); qishloq va kentlar nomlari (Muhammad og'a kenti, Ho'dak kenti, Beshkent, Qulba kenti, Archakent, Yorkand, Navkand, Dehi G'ulomon, Yettikent, Dehi Afg'on); qal'a va qo'rg'onlar nomlari (Qal'ai Dabusi, Qal'ai Zafar, Olaqo'rg'on, Toshqo'rg'on, Asfidak qo'rg'oni); rabotlar nomi (Raboti Sarhang, Raboti Zavraq, Surhrabot, Raboti Ro'zak) kabi guruhlariga ajratib olish mumkin.

Asarda joy nomi bilan nisbat beriladigan mashhur shaxslar haqida ham juda chiroyli tasvirlar beriladiki, bu uning uslubiyatiga sezilarli go'zal ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. *"Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur. Sohibi "Hidoya" Marg'inonning Rushdon otliq kentidindur"*.

Ushbu jumalalarda Bobur mashhur "Hidoya" asari muallifi Burxoniddin al-Marg'inoniy haqida fikr bildiryapti. Pretsedent birlik haqida tushunchalar aynan joy nomidan hamda ijodkorning mashhur asari nomidan anglashilyapti.

Shuningdek, asarda mashhur mevalar nomi ham aynan joy nomlari bilan eslanishi ham ko'zga tashlanadi. Bunday nomlanishlar, o'sha joy haqidagi tasavvurlarni, bilimlarni yanada ohiradi. Xo'jand haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni bayon qiladi: *"Mevasi farovon va bisyor yaxshi bo'lur. Anori yaxshiliqqa mashhurdir. Nechukkim, "sebi Samarqand" derlar va "anori Xo'jand" derlar. Vale bu tarixda Marg'inon anori ko'p ortiqtur."*

Yana bir shahar ta'rifini keltira turib uning dashtlari haqida ham ma'lumot beradi. Bunda o'sha mashhur dasht nomining kelib chiqish tarixi haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradiki, bu jihat ham "Boburnoma"dagi badiiyatni kuchaytirgan. *"Muning tavobidin Kandibodomdur. Agarchi qasaba emas, yaxshig'ina qasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdin bu ismg'a mavsumdur. Hurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur. Xo'janddin besh-olti yig'och sharq tarafidadur. Xo'jand bilan Kandibodom orasida bir dasht tushubtur. Hodarveshg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtga yel borur. Marg'inongakim, sharqidur, hamisha mundin el borur. Xo'jandg'akim g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'luqub, bir-birini topolmay, "Ho, darvesh", "Ho, darvesh", dey-dey halok bo'lubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar."*

"Boburnoma"da maqollar, hikmatli so'zlar, she'riy parchalar ham pretsedent birlik bo'lib kelgan. Masalan, *"Deh kujovu daraxton kujo"*, ya'ni *"Qishloq qaydayu, daraxtlar qayda"*. Bu

yerdA Axsi shahrining ta'rifi keltiriladi va sharning faqat qo'rg'onlar bilan zichligini shu maqol orqali ta'riflaydi.

Yana 905 (1499-1500) yil voqealari bobida Ahmad Tanbal qo'shini bilan Bobur qo'shinining Koson yaqinida duch kelgani aytiladi. Bobur dushmanni ustiga darhol bosib bormoqchi bo'ladi. Ammo Vays Log'ariy va boshqalar kun kech bo'ldi, ertalab bosaylik deb maslahat beradilar. Ertalab esa Ahmad Tanbalning qo'shini g'oyib bo'lgan edi. Bobur o'zining shunday kayfiyatini quyidagi maqol orqali ko'rsatadi: "Masal borkim qopudag'ini qopmasa, qariguncha qayg'urur".

932 (1526) –yil voqealar bobida Boburga dushmanlari zahar berganlari hikoya qilinadi. O'zining murakkab ahvolini, ichga kirgan og'uning yetkazgan zahmatlarini chekkan qahramon asta-sekin o'ziga kelgach, ana shunday azoblarni boshidan kechirgan odamgina jon qadrini biladi, degan xulosasini quyidagi misra orqali e'lon qiladi. "*Kim o'lar holatga yetsa, ul bilur jon qadrini*".

Bundan tashqari, asarda bunday maqollar turli o'rinlarda ishlatilgan. Masalan, "*Safi mag'lubro xus basandast*" (*Yengilgan safga bir "hoy" kifoyadir*), "*Inonmag'il do'stingga, somon tiqar po'stingga*", "*Dushman ne demas, tushga ne kirmas*", "*Teng bo'lmaguncha to'sh*", "*On guzzaro ob burd*" ("*U kechuvni suv olib ketgan*"), "*Uzrash badtar az gunoh*" ("*Tovbasi gunohidan yomonroq*") kabi. Ko'rinadiki, qo'llangan pretsedent birliklarda qahramon hayotining ma'lum bir davri va qilayotgan ishlarining natijalari namoyon bo'lgan.

Olamga mashhur Toshkent haqida quyidagilarni aytadiki, ushbu joy nomi ham pretsedent birlik sifatida asar mazmunini yanada boyitadi. "*...ul fursatda Toshkand viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba'zi Choch bitirlarkim, "kamoni chochiy" andin iborattur, berdi*".

Temuriylar qarorgohlaridan bo'lgan Ko'ksaroy nomi ham tarixda ma'lum va mashhur. Ushbu imoratni Amir Temur qurdirgan bo'lib, Samarqand arkida joylashgan eng oliy binolardan biri bo'lgan. "*Temurbek avlodidin har kim bosh ko'tarib taxtqa o'ltursa ham munda qo'yar, hattokim, kinoyati bo'lur edikim, falon podshohzodani Ko'ksaroyg'a chiqordilar, ya'ni o'lturdilar*".

Kobul shahri bilan bog'liq voqealarda ham Boburning ruhiy holati, kayfiyati ushbu mashhur bayt orqali bayon qilingan.

Charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu,

Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?

"Qoldimu" radifli ushbu she'rini pretsedent birlik sifatida tahlil qilishimiz mumkin, negaki ushbu baytlar o'zbek adabiyotida ham juda mashhur.

“Boburnoma”dek ulkan asarda har bir detal, har bir obraz, har bitta joy nomi pretsedent birlik hisoblanadi. Sababi, ushbu asar butun dunyoga ma’lum va mashhur. Yuqorida biz undan ayrim parchalarni keltirdikki, ular asarga yanada ko’rk, joziba bag’ishlagan, asarning badiiyatini yanada ochib berishga xizmat qilgan. Boburning nihoyatda chuqur bilimga ega ekanligi uning joy nomlariga keltirgan ta’riflarida yaqqol namoyon bo’lgan. Asarning badiiyligini ta’minlagan vositalar, ya’ni pretsedent birliklarning qo’llanishi har bir o’quvchining e’tiborini o’ziga tortadi. Chunki, shunchaki ma’lumot berish yo’sinidagi asarlar kishini zeriktiradi.

XULOSA

Barcha pretsedent birliklar dastlab tilshunoslikda o’rganilgan va keyinchalik badiiy adabiyotda ta’sirchanlikni oshirish maqsadida, ifodaning o’quvchiga tushunarli va aniq yetkazib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida til bilan adabiyotni bir - biridan ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. Har qanday adabiyot til orqali namoyon bo’ladi. Shu nuqtayi nazardan pretsedent birliklarni badiiy vosita deb bimalol ayta olamiz. Mumtoz adabiyotimizdagi talmeh san’ati haqidagi fikrlar ham buni tasdiqlaydi.

Pretsedent birliklar badiiy matnlarda turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ilmiy, rasmiy, badiiy, so’zlashuv uslublaridagi matnlar pretsedent birliklar bo’la oladi. Nomlar, matnlar, maqollar, hikmatli so’zlar, iboralar, reklamali shiorlar pretsedent birliklar hisoblanadi. Bu birliklar matnga ta’sirchanlik beradi, hissiy bo’yoqdorlik beradi, fikrning inson tafakkurida aniq, ravshan namoyon bo’lishiga yordam beradi. Shuningdek, badiiy matnlarda pretsedent birliklarning qo’llanishi orqali ma’lum bir millatning mentaliteti, milliyligi, turmush-tarzi haqida ham ma’lumotga ega bo’lish mumkin. Bunda esa yuqorida ta’kidlanganidek, pretsedent birliklarning uslubiy jihatlari katta ahamiyatga ega.

“Boburnoma”da mingdan ortiq shaxslar tilga olinadi. Ularning ko’pchiligi pretsedent birlik sifatida qo’llangan bo’lsa, boshqalari haqida qisqacha ma’lumotlar berib o’tilgan. Ushbu nomlar asar kompozitsiyasida, syujetida, mazmunida katta ahamiyatga ega. Negaki, ushbu nomlar asar voqealarining harakatlantiruvchisi hisoblanadi. Bobur asardagi biror nomga murojaat qilar ekan, xolislik bilan munosabatda bo’ladi, bu esa asar badiiyatini yanada oshirgan. Ish davomida pretsedent nomlarni aniqlashda hukmdorlar, amirlar, vazirlar, din peshvolari, ijod ahllari: shoirlar, rassomlar, sozandalar; ayollar obrazlariga murojaat qildik. Bundan tashqari Bobur biror bir nom haqida fikr yuritganda u shaxs haqida maksimal darajada aniqlik bilan fikr yuritgan. Masalan, ularni tashqi ko’rinishidan tortib, qilgan ishlari, fe’l-atvori, egallagan mavqeyi va boshqalar haqida o’z qarashlarini bayon qilgan.

Asarda keltirilgan shaxs nomlari muhim ahamiyatga ega. Ularning ruhiyati, xulq-atvori, ijtimoiy hayotdagi mavqeyi, ijodkor inson bo’lsa, ijod namunalari tilga olinadi. Sababi, asarni jonlantiruvchi nuqtasi ham aynan obrazlardir. Har bir obrazga to’xtalar ekan, Bobur xolislik bilan

munosabatda bo‘ladi. Bunday yondashuv asarning badiiyatiga va ilmiy ahamiyatiga ijobiy ta’sir qilgan.

“Boburnoma”dek ulkan asarda har bir detal, har bir obraz, har bitta joy nomi pretsedent birlik hisoblanadi. Sababi, ushbu asar butun dunyoga ma’lum va mashhur. Yuqorida biz undan ayrim parchalarni keltirdikki, ular asarga yanada ko‘rk, joziba bag‘ishlagan, asarning badiiyatini yanada ochib berishga xizmat qilgan. Boburning nihoyatda chuqur bilimga ega ekanligi uning joy nomlariga keltirgan ta’riflarida yaqqol namoyon bo‘lgan. Asarning badiiyligini ta’minlagan vositalar, ya’ni pretsedent birliklarning qo‘llanishi har bir o‘quvchining e’tiborini o‘ziga tortadi. Chunki, shunchaki ma’lumot berish yo‘sinidagi asarlar kishini zeriktiradi.

Manbaning sujet va kompozitsiyasida tarixiy shaxslar nomiga alohida urg‘u berilgan. Bunday yondashuv asarning badiiy hamda tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаева М. “Бобурнома” ва “Шажараи турк”нинг қиёсий поетикаси.—Тошкент, 2002
2. Зоҳидов. В.Й. Бобурнинг фаолияти ва адабий илмий мероси, “Бобурнома”.Тошкент. 1960.
3. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М., 1996
4. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. М.: Издательство ЛКИ, 2010.
5. Нахимова Е.А. Претцедентные имена в массовой коммуникации. —Екатеринбург: 2007
6. Нахимова Е.А. Претцедентные имена в массовой коммуникации: монография. ГОУ ВПО “Урал.гос.пед.ун-т”; Инс-т социального образования. Екатеринбург: 2007
7. Mamatov A. E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent., “Tafakkur avlodi”-2020
8. Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013.
9. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: “Akademnashr”, 2010.
10. Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология (Услубий қўлланма), Наманган 2017
11. О‘zbek tili va adabiyotini jahon miqyosida targ‘ib etish: natija va vazifalar. 2021-yil. 26-oktabr. O‘zbek tilida pretsedent nomlar tadqiqi. Muxlisa Saydaliyeva.
12. O‘zbekiston ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi konferensiya materiallari. 2020-yil. №19. 31-avgust. O‘zbek tilshunosligida pretsedent birliklar. Teshaboyeva Nigora Djalaldinovna.
13. Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати// Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, № 3 (38), 78-92

14. Махсудова Х. Прецедент номлар поетонимларнинг таркибий қисми сифатида. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. [https:// conferencea.org](https://conferencea.org) June 28th 2022

15. Пардаева Н. Э. Замоновий тилшуносликнинг лингвокультурология соҳасида прецедент бирликлар тадқиқи// “Экономика и социум” № (80) 2021// <https://www.iupr.ru>

16. Сайдалиева М. “ Ўзбек прецедент номларининг қўлланишидаги айрим жиҳатлар” // IV EUROASIA International Congress on Multidisciplinary Studies. Shymkent, Kazakhstan, August 25-28, 2019.

17. Sobirov J. “Boburnoma”da joy nomlari toponimikasi. Academic research in educational sciences.(jurnal). 2021.

18. <https://iaau.uz/oz/news/1705>

19. <https://ru.wiktionary.org/wiki/прецедент#Значение>